



BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING BADIY IJOD QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH SHARTLARI

Muallif: Saddinov Alisher Atadjanovich ¹

Affilyatsiya: Mustaqil tadqiqotchi ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14408754>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy ijod qobiliyatlarini rivojlantirishning ayrim shartlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, musiqa, badiiy ijod, qobiliyat, rivojlanish, shartlar, metodik, qarashlar.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy ijod qobiliyatlarini rivojlantirishda metodik tayyorgarlik bastakorning tugallangan mukammal asari shaklida namoyon bo'ladi. San'at aql bovar qilmaydigan mukammallikni anglashga, dunyo tartibini go'zalligini, uning haqiqatini ifodalovchi badiiy ijod natijasida yuzaga kelgan vosita bo'lib xizmat qilishga chaqiradi. Badiiy ijod uchun dunyo to'liq tugallanmagan, chunki tabiiy go'zallik o'zi og'irlikni yenga olmaydi. Shu sababli dunyoni ma'naviy kuch bilan o'zgartirish vazifasini asosiy maqsadi "takrorlash emas, balki tabiat boshlagan ijodiy ishni davom ettirish bo'lgan, bu ishni yolg'iz ijodkor o'z zimmasiga oladigan ongli odamga ishonib topshiradi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy ijod qobiliyatlarini metodik rivojlantirishda musiqa san'atining eng oliy vazifasi sifatida "jismoniy hayotni ma'naviy hayotga aylantirish", "borlikning ruhiy organizmini yaratish" kabi ulkan nazariy g'oyalarni tushuntirish maqsadiga muvofiq bo'ladi. Darhaqiqat, borlikda hech qanday o'zgarmagan materiya qolmaydi. Mahalliy olimlardan Q.Panjiyev "mukammal san'at bizning real hayotimizni o'zgartirishi kerak va u o'tmish an'alarini o'zida singdirgan, kelajak avlodni ma'naviy jihatdan aynan milliy ruhda tarbiyalaydigan g'oyat ulkan an'alarini o'zida singdirishi lozim" deydi. Darhaqiqat bu borada bastakor-ijodkorning badiiy ijod namunasi – ilohiy harakat, bo'lajak musiqa o'qituvchilariyat dunyoni yaxshilash uchun ilohiy ishni davom ettiradigan qobiliyatdir. "...Ijod – umumiy va maxsus ikkita bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan maqsadni ko'zda tutuvchi jarayondir. Umumiy - haqiqiy g'oyaning timsolidir ya'ni yorug'lik va hayot, tabiiy go'zallikning turli shakllarida; asosiy maqsad - bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy ijod qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan ya'ni tana go'zalligi bilan birga yorug'lik va hayotning eng yuqori ichki quvvatini ifodalovchi shakl, bu o'z-o'zini anglash demakdir.

Bugungi kunda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining badiiy ijod qobiliyatlarini metodik rivojlantirishda M.M.Baxtinning estetik qarashlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Olim badiiy asarning paydo bo'lishi jarayonida ma'naviy, axloqiy va

estetik bog'liqligini hisobga olish zarur deb hisoblagan. Bastakor avvalo ma'naviy-axloqiy, pedagogik, ijtimoiy, kasbiy munosabatda bo'ladi va shundan keyingina - badiiy-axloqiy munosabatni taklif etadi. Muallif qahramon va uning dunyosiga nisbatan sof estetik pozitsiyani egallashdan oldin o'zi sof hayotiy pozitsiyani egallashi kerak. Qahramonning konteksti ma'naviy va axloqiy, muallifning konteksti esa badiiy va axloqiy munosabatdir. Badiiy ijod voqea sodir bo'lishi uchun muallifning "tashqarida mavjudligi" bo'lishini ta'minlaydi. "Tashqarida" pozitsiyasi voqeani "tugatish" imkonini beradi, chunki, u muallifga o'zini boshqa tilga o'tkazishga, boshqa odamlarning hayotiga ko'shib turishga yordam beradi, buni odatiy hayotda qilish juda qiyin, ammo badiiy ijodda busiz ilojsiz. Baxtinning so'zlariga ko'ra, muallifning qahramonga nisbatan "tashqaridan nazari" badiiy olamni yaratish uchun shartdir.

Tadqiqot davomida biz tomonidan taklif etilayotgan mulohaza – bu o'zaro ikki tomonlama amalga oshiriladigan dialogik aloqa. Ammo ular bir-birining o'rnini bosadigan turli xildagi, ko'pincha qarama-qarshi uslubdagi monolog emas. Dialog – bu janrning "xotirasi" bilan, qahramon (haqiqiy va potensial) bilan, badiiy bo'lmagan haqiqat bilan, qahramonlarning qadriyat yo'nalishi bilan muloqoti, shu jumladan "yashirin" dialogik, maxsus logosferadagi ko'p tilli so'zlar va sukunatli dialogdir.

Umuman olganda, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining qobiliyatlarini rivojlantirishda badiiy ijodiy qobiliyat muammosi, uning tabiati va mohiyati, yuqoridagi sharhdan ko'rinib turibdiki, uzoq va qiziqarli tarixga ega. XIX asr oxiri, XX asr boshlariga qadar badiiy-ijodiy qobiliyatlarning tabiati va mohiyatini tushuntirishga urinishlar asosan Platon va Aristotel tomonidan umumiy ma'noda bayon qilingan va F. Shelling, I. Kant, Gegel, A. Shopengauer va boshqalar asarlarida ishlab chiqilgan dastlabki (asosan idealistik) ta'riflarga asoslangan edi.

Ammo biz tomonimizdan aynana bo'lajak musiqa o'qituvchilarining qobiliyatlari rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan badiiy ijod masalasi bo'yicha asosiy e'tibor hayotga badiiy nazar va umuman ijod jarayonini o'ziga xos tomonlarini, ongning ratsional-mantiqiy qatlamiga, ularning o'ziga xosligida aks ettirishning emotsional-hissiy shakllarini tushuntirishga qaratilgan. Keyin ilmiy fikrlar yuqoridagi g'oyalarni rivojlantirish, o'zgartirish va takomillashtirish yo'nalishi bo'yicha ketgan. Shu bilan birga, ba'zi maxsus masalalar – badiiy va ilmiy ijodda umumiy va turli masalalar ko'tarilgan. Badiiy va ilmiy ijodning umumiy tarkibiy qismlari nimada, ularning farqlari nimada, musiqiy va ijrochilik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini nima belgilaydi? degan savollarga jaob berish ayni o'rinlidir. Ha, albatta, ilmiy va badiiy ijod o'rtasida umumiy faktorlar mavjud: olim ham, bastakor ham o'zlarini qiziqtirgan narsalar ustida ishlaydi; ikkalasida ham ijodning ilhom va bir damlik kulmanitsion cho'qqisiga chiqqan lahzalari bor; ilm-fan va san'atda ijodiy tasavvur zarur, uning yordamida real hayotdan, mantiqdan "ajralgan holda" bo'lish lozim, ikkala sohada ham intuitsiyaning ahamiyati katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Panjiyev Q.B. Musiqa o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent. 2023. 306 b.
 Panjiyev Q.B. O'zbek xalq qo'shiqlari vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Monografiya. 2022, 202 b.
 Ibrohimjonova G.A., Yuldoshev U.Yu. Musiqa nazariyasi. Darslik. Toshkent. 2017

Abdullin E.B. Teoriya i praktika muzqkalnogo obuchenie v obsheobrazovatelnoy shkole. M. 1983.

Ibrohimov O.A. "O'zbek xalq musiqa ijodi" (metodik tavsiyalar 1-qism), Toshkent. 1994-y. B. 62.

Karabaev U. Etnokultura (Traditsionnaya narodnaya kultura): Ucheb. Posobie Toshkent, Sharq. 2005. St. - 240.

